

USMON AZIM IJODIDA BADIY SAN'ATLAR

Toshmamatova Farangiz Ulug'bek qizi

NavDU 1-kurs magistranti

Yavqochova Gulnora

NavDU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumsharq adabiyotining yetuk an'analarini o'zida mujassam etgan ijodga ega bo'lgan o'lmas so'z san'atkori Usmon Azim she'riyatidagi badiiy tasvir vositalarining o'ziga xosligi, she'riy san'atlarni qo'llashdagi mahorati bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: She'riy san'atlar, uslub, iste'dod, intoq, tashbeh, tashxis, tasbe', mukarrar, ijtimoiylik, ilhom.

Аннотация: В статье рассказывается об уникальности поэзии бессмертного художника слова Усмана Азима, творчество которого воплотило в себе зрелые традиции восточной литературы, и его мастерстве поетического искусства.

Ключевые слова: Поетическое искусство, стиль, талант, интонация, аллегория, диагностика, четки, повторение, социальность, вдохновение.

Annotation: This article describes the uniqueness of the artistic means of expression in the poetry of the immortal word artist Usman Azim, whose work embodies the mature traditions of Eastern literature, and his mastery in using poetic arts.

Keywords: Poetic arts, style, talent, enflition, allegory, diagnosis, rosary, repetition, sociality, inspiration.

KIRISH: O'zbek adabiyotida badiiy ifoda usullari va badiiy san'atlar lirik asarlarning jozibasi hisoblanadi. Lirik asarlardagi tabiat go'zalliklari tasviri, hayotning ijtimoiy masalalari inson qalbidagi ehtirosli tuyg'ular mavji, ezgulik va razolat, poklik va nopoklik, sadoqat va xiyonat kabi ko'plab fazilat va illatlar o'rtasidagi murakkab insoniy kechinmalar va qarama-qarshiliklarni ifodalashda Qalam sohiblari betakror va mo'jizaviy badiiy san'atlardan unumli foydalanib kelinmoqda. Ijodkorlar o'z kechinmalarini badiiy jihatdan go'zallashtirib nasr yoki nazm ko'rinishida ifoda etadilar. Ayni shu kechinma-she'riyatning yuragi, jon tomiri va asosi hisoblanadi. Kechinmalardagi erkinlik ijodining asosini tashkil etgan, qalb da'vati ila yuzaga kelgan tuyg'ularini doimo she'rlarida aks ettirgan, solim hissiyot bilan fikr yuritadigan shoir Usmon Azim o'z ijodida ko'plab badiiy tasvir vositalaridan, she'riy san'atlardan o'ziga xos falsafiy va teran mushohada bilan foydalangan. Bu orqali esa shoir she'rlarini butun borliq bilan muloqot qilish manbaiga aylantirdi.

Nazmda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan intoq san'ati orqali Usmon Azim o'zining falsafiy qarashlarini kitobxonga taqdim etadi. "Intoq – "so'zlatish", "gapirtirish" ma'nosini anglatib, badiiy asarda hayvonlar yoki narsalarni odamlarga o'xshatib so'zlatishni nazarda tutadi".

-Qo'y, qabrdan chiqma... Alvido!

Hayotimning mangu ertagi...

Qabristondan qaytadi avto,

Qisirlanib ming bir tersagi⁶²

"Avtomobil haqida ballada"dan olingan ushbu misralar orqali shoir intoq san'atini vujudga keltirgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bu ballada bugungi ijtimoiy hayotda ko'p uchraydigan salbiy holat - yanggi do'st kelganda eski do'stdan voz kechadigan insonlarning halokatiga sabab bo'lgan hiyonatni ochib bergan. Avtomobil o'z hojasiga sidqidildan xizmat qildi va uni hayotining manggu ertagi deb bildi. Yanggi mashinada halok bo'lgan egasi bilan uning ya'ni avtomobilning hayoti ham ertagi ham o'z nihoyasiga yetdi go'yoki. Usmon Azimning ushbu balladasida botinan hiyonat qoralangan va sadoqat kuylangan.

Shuningdek shoir qator she'rlarida tashbeh san'ati orqali o'zining milliy va noyob uslubini namoyon etadi. "Tashbeh- sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, "o'xshatish" ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy (real) yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir".⁶³

Ikki qoshing- ikki qanot.

Ikki ko'zing – ikki umid qush.

Qay umrni aylading barbod,

Labing nega qondir, yirtqich qush?⁶⁴

"Sening o'jar lablaring" deb boshlanuvchi ushbu she'rda shoir yana bir bor o'ziga xos uslubda tashbeh yarata olgan. Ikki qoshning ikki qanotga yoki ikki ko'zning ikki umidqushga o'xshatilishi bu an'anaviy tashbeh, ammo labning qizilligiga ishora qilib uni og'zi qon yirtqich qushga o'xshatilishi individual tashbehdir. Oshiqning yordan kutayotgan birgina so'zi "yirtqich qushdan" ya'ni o'jar, alvon lablardan chiqmayotganligi sababli uning umri barbod bo'layotganligi holati she'rda o'z aksini topgan.

Yongan edim saratonsiz ham!-

Battar kuydim, kul bo'ldim battar.

Naq ko'ksimni mo'ljallab bu dam

Quyosh olov nayzalar otar.⁶⁵

⁶² Азим, Усмон. Куз: Шерлар. – Т.: Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр.. 2001. 117- Б

⁶³ Анвар Ҳожиаҳедов. Шеър санъатларини биласизми? ШАРК НАШРИЁТ- МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ ТОШКЕНТ – 2001. 14-Б

⁶⁴ Азим, Усмон. Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матба ижодий уйи, 2018. 293- Б

Yuqoridagi parchada ijodkor tashxis san'ating go'zal namunasidan foydalangan. "Tashxis – ("jonantirish") hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirish san'atidir".⁶⁶

Bu misradagi, ummuman bu she'rdagi har bir so'z dunyo tilidan aytilmoqda. Bu dunyoda shunday ishlar bo'lmoqdaki, ular ma'naviyatni yoqmoqda, bu esa dunyoni battar kuydurmoqda va battar kul qilmoqda. Dunyoning ko'ksini mo'ljallab nayza otayotgan quyoshda ham nayzada ham dunyoning ko'ksida ham o'ziga xos ramziylik mavjud. Dunyo tilidan so'zlayotgan shoir ushbu she'rda o'zini yozgi osmondagi qovjriagan bir parcha bulutga, yuragini esa yorilgan taqirga qiyoslash orqali tashbeh san'atini ham yuzaga keltirgan.

Kuzda yaqin kelar zaminga Olloh...
Kuzning rahmatidan nechun judosan?
Sen - mening yuragim yaratgan gunox,
Gunohim yaratgan - tanho ziyosan.⁶⁷

Kuzda sokinlik bor. Kuzda matonat va sabot bor. Unda vazminlik mujassam.

Yuqoridagi she'r kuzning sahovatli va marhamatli ekanligi tarifi bilan boshlanib shoir o'zi murojaat qilayotgan shaxsdan nega shu rahmatdan judoligi haqida so'ramoqda. Shuningdek unga sen mening yuragim tomonidan yaratilgan gunohsan va gunohim tomonidan yaratilgan tanho ziyosan demoqda va bu satrlar orqali tasbe' san'ating go'zal namunasini yaratmoqda. Ushbu she'rda o'rikning qontalash barglaridan bargdastalar yasayotgan ijodkor har bir yaproqni bir hadisga o'xshatgan holda tashbeh san'atini hamda kuzga oyatlar o'qitib istiora san'atining ajoyib namunasini yarata olgan.

"Iste'dodli odam o'z iste'dodini yanggi ko'rinishda, yanggi rang va ohangda yanggi shaklda, yanggi teranlik va yuksaklikda qayta-qayta isbot qilib turadi. Nafas yetmagan yanggi-yanggi qit'alarni zabt etadi".⁶⁸ O'z ijodida ana shunday yanggiliklarga intiluvchi, nafas yetmagan qit'alarni tinimsiz zabt etuvchi Usmon Azim o'zining "Cho'lpon" nomli she'rda yangi teranlikni isbot qildi.

Vaqt o'tar tizim-tizim...
Dilimda yetilar roz.
Vaqt o'tar to'zim- to'zim...
So'roq qilma, Xudoyim,
Tunda yashaganim rost.⁶⁹

⁶⁵ Kўrsatilgan manba. 53- Б

⁶⁶ Анвар Ҳожиаҳе́дов. Шеър санъатларини биласизми? ШАРК НАШРИЁТ- МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ ТОШКЕНТ – 2001. 8- Б

⁶⁷ **Азим, Усмон.** Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матба ижодий уйи, 2018. 120- Б

⁶⁸ **У., Азим** Сўнгсўзлар: У.Азим. - Тошкент: Илм-зиё-з аковат, 2020. – 272-Б.

⁶⁹ **Азим, Усмон. Куз: Шерлар.** – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр.. 2001. 269- Б

Yuqorida misralar orqali mukarrar san'atining ajoyib namunasi vujudga kelgan. "Mukarrar – "qayta-qayta", "ust-ustiga" ma'nolarini ifodalaydi".⁷⁰ Bir ipga terilgan marjon shodasidek vaqt ham tizim tizim bo'lib o'tmoqda. Ammo bu tizimli vaqt bir tekisda ya'ni faqat "to'zim" bilan ya'ni hayot ziddiyatlari va murakkabliklariga chidash bilan toqat bilan o'tmoqda. O'zbek adabiyotining yetuk darg'alaridan biri bo'lgan ma'rifatparvar ijodkor Cho'lpon yashagan davr ana shunday tizimli va to'zimli ekanligiga tarix guvoh. Shoir Usmon Azim mana shu vaziyatga ishora qilgan holda Cho'lpon tilidan uning faqat tunda yashaganligini ta'kidlamogda. Ushbu she'r orqali Cho'lpon fojiasini to'liq anglash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Cho'lponning ichki dunyosini butunlay anglab yetgan Usmon Azim jadid adabiyoti vakilining yorug' dunyosi aslida qorong'uligini va qorong'u qabri esa aksincha undan yorug'ligini badiiy tarzda g'o'zal ifodalab bergan. Va shu o'rinda tazod san'atining ham ajoyib namunasini yaratgan.

Odamzod suv, tuproq, shamol va olovdan yaratilganiligi uchun u har doim tabiat shaydosi. Tabiatga intiladi va unga talpingani sari mohiyatni anglab yetadi. Usmon Azim ham tabiatning mohiyatini anglab yetgan holda ana shu tabiat hodisalariga o'ziga xos falsafiylikni singdirgan holda go'zal she'rlar yaratgan va yaratishda davom etmoqda. Mana shunday tabiat manzarasi o'zida falsafiylikni mujassam etgan "Devor yohud Saddiy Iskandariy" she'rida ijodkor epifora san'atini qo'llagan.

Qor yomg'irdan qo'rqadi.
Yomg'ir quyoshdan qo'rqadi.
Quyosh bulutdan qo'rqadi.
Bulut shamoldan qo'rqadi.
Shamol sukutdan qo'rqadi.
Sukut so'rondan qo'rqadi.
Suron o'limdan qo'rqadi...⁷¹

Yuqoridagi she'riy misrada ijtimoiylik ham mavjud. Tabiatda uchraydigan ushbu va boshqa hodisalar ham o'zlaridan kuchliroq bo'lgan boshqa biridan qo'rqadi. Butun olam va butun insoniyat ana shunday vaziyatda ekanligi hech birimizga sir emas. Shoir bu she'rning oxirgi misralarida Allohdan o'lim kimdan qo'rqishini so'ramogda va o'quvchiga go'zal badiiylik orqali Saddiy Iskandariyni javob sifatida ko'rsatmogda go'yoki.

Har bir ijodkor yozayotgan asarini nimadandir, kimdandir yoki qandaydir voqealardan ilhomlanib yaratadi. Ilhom ilhomlanuvchiga g'ayrat va shijoat baxsh etadi. Uni ham

⁷⁰ Анвар Хожиахедов. Шеър санъатларини биласизми? ШАРК НАШРИЁТ- МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАХРИРИЯТИ ТОШКЕНТ – 2001. 20- Б

⁷¹ Азим, Усмон. Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матба ижодий уйи, 2018. 293- Б

ruhan ham jismonan ham ma'nan harakatga keltiradi. "Ilhom har doim kuylaydi, u hech qachon tushuntirib bermaydi"(Xalil Jubro).⁷² Bugungi o'zbek adabiyotining yetuk darg'alaridan biri bo'lgan Usmon Azimning ana shunday ilhom bilan sug'orilgan va sherxonga ilhom bag'ishlovchi she'rlari talaygina. Ularda biri bu "Tush" she'ridir. Ushbu she'r quyidagicha yakunlnadi:

Hamma gunoh qildi - ko'rdim men,

Hamma gunoh qildi - jim turdim.⁷³

"Men bu asarni dinu diyonat unutilgan, ma'naviyat izdan chiqqan, insoniylikdan chekingan jamiyat suvrati deb bilaman" deb ta'kidlaydi Olim Toshboyev.⁷⁴

Yuqoridagi misralarga otaxon shoirimiz Usmon Azim hadis mazmunini mohirona sindirgan. "Sizlardan birortangiz munkar (yomon) ishni ko'rsa, uni bu ishdan qo'li bilan qaytarsin, agar qodir bo'lmasa tili bilan qaytarsin, agar qodir bo'lmasa dili bilan, o'sha dili bilan qaytarishi imonning zaifligidir".⁷⁵ Shundan kelib chiqadiki, bu she'rda g'ayri odatiy tarzda iqtibos san'ati yuzaga kelgan. "Iqtibos – "ilm o'zlashtirmoq" ma'nosidagi bu so'z qur'on oyatlari va payg'ambar hadislarini she'r ichida keltirish yoki ularning mazmunini she'rda ifodalash san'ati".⁷⁶

Ijod qilib qalam tebratgan kishi yo'qki muhabbat mavzusini kuylamagan bo'lsa. O'z yorini har kim har xil go'zal nomlar bilan ataydi. Ana shu nomda mahbubasining butun go'zalligini mujassam eta oladigan adiblar ham anchagina. Jufti halolini "uyim" deb atagan shoir Usmon Azim bu tarifi ila go'zal manzarani, ajoyib his-tuyg'ularu, dilkash tushunchalarni o'quvchi tassavurida jonlantiradi. Shoir ushbu she'ri orqali sadoqat, mehr-u mahabbat ustiga qurilgan baxtli va sokin o'zbek oilasining beqiyos suratini chiza olgan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Men uy'gonsam,

Uyim uyg'ongan bo'ladi.

Oshxonada choy quyayotgan bo'ladi uyim,

"Ko'chaga

Dori ichmasdan

Chiqib ketmasin" deb tashvishlanayotgan bo'ladi.⁷⁷

Metonimiya san'atini yuzaga keltirgan ushbu misralar orqali erkak kishi uchun haqiqiy hotirjam uy, ajoyib maskan bu uning soliha, mehribon ayoli ekanligi anglashiladi. Metonimiyada biz bilamizki, o'xshashlik bo'lmaydi, balki bog'liqlik mavjud bo'ladi.

⁷² Hotam Umurov. Talabalarining ma'naviyati va ma'rifati. – Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2024. – 152 bet.

⁷³ У., Азим Сўнгсўзлар: У.Азим. - Тошкент: Илм-зиё-з аковат, 2020. – 5-Б.

⁷⁴ Қўрсатилган манба. 5- Б.

⁷⁵ Қўрсатилган манба. 5- Б.

⁷⁶ Анвар Хожирахмедов. «Мумтоз бадият луғати» « янги аср авлоди »2008 йил 31- Б

⁷⁷ Азим, Усмон. Кўнгил / Усмон Азим. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 98- Б.

Darhaqiqat ayol bilan uy o'rtasida ham ana shunday bog'liqlik bor. Ellik yildan buyon shu uyimini ko'chadan sog'inib qaytganim qaytgan" degan shoir Usmon Azim ijodida bunday go'zal tashbehnlarni ko'plab uchratamiz.

Shoir o'z ijodida agionimlardan – payg'ambarlar, diniy martabaga ega bo'lgan shaxslarning ismlaridan ham ko'p o'rinlarda foydalangan holda, talmeh san'atining ham ajoyib namunlarini yuzaga keltirgan.

Shunday kecha yanggi dunyoga
Shayton olma urug'in qadar
U jim boqar Momo Havoga,
U ham buyuk - mangulik qadar.⁷⁸

Malikaning olmalar otib bog'dagi sukunatga to'p- to'p vahimalar tushurishi bilan boshlanuvchi ushbu she'r bog'da go'zal tun mahal shaytonning olma urug'ini qadayotgan holda Momo Havoga jim boqishi bilan tugaydi. Bu ajoyib misralar ham o'zida olam-olam ma'nolarni mujassam etgan. Dunyoda va jamiyatda har qaysi zamonda ham shunday insonlar bo'lganki, to'g'ri insonlarni yo'lidan adashtirish uchun astoydil harakat qiladigan va bu yo'lda har qanday vositalardan foydalanadigan badniyat kishilardir ular. Ularning ishlari ham go'yoki Momo Havoni aldagan shaytonning nayrangidek. "Tazarru bog'lari" turkumiga kiruvchi ushbu she'rda ijtimoiylik nafasi ufurib turganligi anglashimiz mumkin.

XULOSA: Ajoyib badiiy mahoratga va individual uslubga ega bo'lgan Usmon Azim o'z she'rlarida badiiy tasvir vositalaridan, she'riy san'atlardan shu darajada mohirona foydalana olganki ular faqatgina she'r mazmunii boyitibgina qolmasdan o'quvchiga ma'naviy tarbiya berish, ularni mushohadaga, mantiqiy fikrlashga o'rgatish kabi vazifalarni ham bajargan. Usmon Azim ijodi noyob milliy hodisadir.

⁷⁸ **Азим, Усмон.** Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матба ижодий уйи, 2018. 161- Б.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Азим, Усмон.** Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матба ижодий уйи, 2018. -456 б
2. **Азим, Усмон. Куз: Шерлар.** – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр.. 2001. -448 б.
3. **У., Азим** Сўнгсўзлар: У.Азим. - Тошкент: Илм-зиё-з аковат, 2020. – 512 б
4. **Азим, Усмон.** Кўнгил / Усмон Азим. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 320 б.
5. Анвар Ҳожиаҳедов. «Мумтоз бадият луғати», «янги аср авлоди» 2008 йил
6. Анвар Ҳожиаҳедов. Шеър санъатларини биласизми? ШАРК НАШРИЁТ-МАТБАА АКЦИЯДОРЛИК КОМПАНИЯСИ БОШ ТАРИРИЯТИ ТОШКЕНТ - 2001
7. Hotam Umurov. Talabalarining ma'naviyati va ma'rifati. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2024. – 152 bet.

